

**O'BEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG'ARMALARI  
FAKULTETI  
“BAHOLASH ISHI VA INVESTITSİYALAR”  
KAFEDRASI**

# **KURS ISHI**

**Mavzu: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual  
mulk bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**

**Bajardi: Musaev J.M.  
Tekshirdi: Shomirov A.**

**Toshkent – 2016**

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH**

1. Intellektual mulk bozori, mohiyati va metodologiyasi
2. Intellektual mulk bozorining rivojlanish tendensiyalari va unda qiymatni baholashning xususiyatlari
3. Intellektual mulk bozorini rivojlantirish va unda baholash faoliyatining rolini oshirish yo`llari

### **XULOSA**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

## KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon Yurtboshimizning sa'y-harakatlari bilan barcha sohalarda izchillik va bosqichma-bosqich tarzda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ko'zlanayotgan asosiy maqsad inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'targan holda xalqimiz farovonligini ta'minlashga qaratilgandir. Shunday sa'y-harakatlardan biri – har bir shaxsning intellektual mulk huquqini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilganligi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek “Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar”

“Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi”<sup>1</sup>.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida intellektual mulkni himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgani o'zining yuksak samarasini berayotir. O'zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida”gi, “Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida”gi qonunlari hamda boshqa ko'plab me'yoriy hujjatlar sohaga oid munosabatlarni tartibga solishda muhim huquqiy asos bo'lmoqda.

Mamlakatimiz intellektual mulkni muhofaza qilish sohasida ko'plab xalqaro shartnoma va bitimlarga a'zo. O'zbekiston bu yo'nalishda YuNESKO, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) kabi xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik o'rnatgan. Mamlakatimizning Bern konventsiyasiga qo'shilgani ushbu

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabr. 42-modda.

yo'nalishdagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirib, mualliflar va ularga tenglashtirilgan boshqa huquq egalari uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Bu ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni xorijda muhofaza qilish hamda chet el investitsiyalarini jalb etish imkonini bermoqda.

Dastlab sanoatga oid intellektual mulkning 4 ob'ektiga — ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilarini huquqiy muhofaza qilish joriy etilgan bo'lsa, hozirgi kunda EHM uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari, o'simlik navlari, integral mikrosxemalar topologiyalari, tovar kelib chiqqan joy nomlari kabi o'ndan ortiq intellektual mulk ob'ekti muhofazaga olingan. Eng muhimi, patentli himoyalash tizimi ilmiy ishlanmaning huquqiy himoyasini ta'minlash bilan birga, uni ishlab chiqarishga joriy etishga keng yo'l ochayotir<sup>2</sup>.

Milliy va xalqaro tajribadan ma'lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darajasi ko'p jihatdan intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha yaxshi rivojlangan va izchil yo'lga qo'yilgan tizimga bog'liq. Zero, iqtisodiyotdagi samaradorlik ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolarning joriy etilishi evaziga oshadi. Shu bois, bugungi kunda intellektual mulk har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim qismiga aylangan. Intellektual mulkning taraqqiy etishi o'z navbatida, iqtisodiyotga sarmoyalar kiritilishiga, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi esa xalq xo'jaligining modernizatsiyalashuviga hissa qo'shadi. Shu boisdan mamlakatimiz Prezidenti tomonidan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" nomli ma'ruzasida ko'pgina masalalar qatorida mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish zarurligiga ham alohida to'xtalib o'tildi: "Bu boradagi vazifalarni amalga oshirish yo'nalishida avvalo, intellektual mulk sohasida bir-biridan mustaqil faoliyat yuritib kelgan Davlat patent idorasi hamda O'zbekiston Mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi birlashtirilib, ularning negizida O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tashkil etildi. Natijada davlat boshqaruvi organlari sonini optimallashtirish, intellektual

---

<sup>2</sup> [xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/937-intellektual](http://xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/937-intellektual)

mulk sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, yaxlit yondashuvni ta'minlash, mamlakatimizning ushbu sohadagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash va hayotga tatbiq etishda tashkiliy hamda uslubiy jihatdan ko'maklashish imkoniyati yaratildi"<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo`shma majlisidagi ma`ruzasi. «Toshkent oqshomi» gazetasi, 2010 yil 20 yanvar, №13.

## **1. INTELLEKTUAL MULK BOZORI, MOHIYATI VA METODOLOGIYASI**

“Intellectual mulk” tushunchasi dastlab 1967 yil 14 iyuldagi «Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ni tashkil etish to’g’risida»gi Stokgolm konvensiyasida ilgari surilgan. Mazkur konvensiya intellektual mulkning huquqiy maqomini belgilash bilan birga, uning tarkibi, ya’ni ob’ektlarini ham aniqladi hamda BIMT faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini ko’rsatib berdi.

Bugungi kunda intellektual mulk huquqiga oid qonunchilikning izchil isloh qilinayotgani intellektual mulkning huquq tizimida asosiy institutlardan biri sifatida rivojlanayotganidan dalolat beradi. Keyingi yillarda respublikamizda ham intellektual mulk huquqiga oid qonunchilik tarkiban va mazmunan jiddiy yangilandi. Unga ko’ra intellektual mulk huquqini patent huquqi, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga ajratish mumkin. Milliy qonunlarimizda aynan ana shu toifadagi huquqlar e’tirof etilgan holda, barcha tafakkur mulki huquqiy muhofaza qilinishini Fuqarolik kodeksida ko’rishimiz mumkin.

Kodeksning normalari, o’z navbatida, bir qator sohaviy qonunlarning ham qabul qilinishida huquqiy asos bo’lib xizmat qildi.

Respublikamizda intellektual mulk huquqini himoya qilish tizimining yaratilishini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich 1991-1995 yillarga to’g’ri kelib, bu davr jahon patent tizimi tajribasini o’rganish, sohaga oid ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarga a’zo bo’lish, milliy qonunchilik asoslarini yaratish, davlatning vakolatli organi, ya’ni Davlat patent idorasi, Mualliflik huquqini himoya qilish agentligining tashkil etilishi va oyoqqa turishi yillari bo’ldi.

Ikkinchi bosqich 1996-2002 yillarga to’g’ri keladi. Bu davrda intellektual mulk boyliklarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari takomillashtirildi. Jumladan, «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to’g’risida», «Tovar belgilari, xizmat ko’rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to’g’risida», «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to’g’risida», «Integral mikrosxemalar

topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida», «Seleksiya yutuqlari to'g'risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Bu yillarda faqatgina patent huquqi sohasida umummajburiy xarakterdagi 15 ta hujjat va idora faoliyatini tartibga soladigan 120 dan ziyod me'yoriy hujjat ham ro'yxatga olinganini qayd etib o'tish lozim. Bu rivojlangan davlatlarning shu sohada faoliyat olib boradigan idoralari tajribasini respublikamizda tizimli hamda samarali joriy etish imkonini berdi.

Uchinchi bosqich 2003 yildan boshlanib, hozirgi kuni qamrab oladi va bu yillarni «hamkorlar bilan ishlash davri» deb nomlash mumkin. Huquqiy muhofaza qilinadigan intellektual mulk ob'ektlari haqida jamoatchilikni xabardor qilish, xalqaro anjumanlar o'tkazish orqali respublikamizda olib borilayotgan sohaga oid islohotlarni dunyo jamoatchiligiga etkazish, sohaga oid milliy qonunchilikning qo'llanishi va xalqaro aktlarning ijrosi yuzasidan nazorat-tahlil ishlari o'tkazilishi, omma o'rtasida targ'ibot ishlarini yuritish kuchayganini shu yillarda ko'rish mumkin.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yuksak texnologiyalarning kirib kelishi natijasida yaratilayotgan yangiliklar, texnik echimlar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari, o'simlik navlari, hayvonlarning yangi zotlari, mikrosxemalar topologiyalarini yaratuvchi ijodkorlarning huquqini himoya qilish zaruriyati intellektual mulkni yangi normalar asosida muhofaza qilishni taqozo etadi.

Davlat patent fondini shakllantirish ham asosiy vazifalardan biri bo'lib, u o'tgan yillar davomida 16 mln.dan 66,8 mln. nusxagacha, ya'ni 4,2 marotaba ko'paygan. Ularning 78 foizdan ortig'i optik (CD-ROM va DVD ROM) disklarda saqlanadi.

Milliy patent tizimining yaratilgani va uning xalqaro tashkilotlar bilan uyg'un faoliyat olib borayotgani yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishga keng sharoit yaratib berayotir. Shu bilan birga, intellektual mulk huquqi sohasidagi

xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi ham soha rivojiga turtki bermoqda.

O'zbekiston o'tgan vaqt ichida Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konventsiyasi, Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun Madrid bitimiga doir bayonnoma va protokoli, Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnoma (RST), Tovar belgilariga oid qonunlar to'g'risida shartnoma (TLT), Patent huquqi to'g'risida shartnoma, O'simliklar yangi navlarini muhofaza qilishga oid xalqaro konventsiya (UPOV), Patent tadbirlari maqsadlari uchun mikroorganizmlarni deponentlashtirishni xalqaro e'tirof etish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi kabi nufuzli xalqaro shartnomalarga qo'shildi va BIMTning faol ishtirokchisiga aylandi.

Bundan tashqari, Evropa patent idorasi (O'zaro patent axborotini taqdim etish masalalari bo'yicha, 2005 yil), Evroosiyo patent idorasi (Sanoat mulkini himoya qilish sohasida o'zaro hujjatlarni almashish bo'yicha bitim, 2000 yil) bilan hamkorlik bitimi imzolangan. O'zbekiston patent hujjatlarini almashish bo'yicha boshqa xorijiy davlatlar bilan 10 ta hukumatlararo, 17 ta idoralararo bitim imzolagan va hamkorlik bo'yicha 6 ta verbal nota almashilgan. Intellektual mulk sohasida hamkorlik masalari bo'yicha MDH davlatlari bilan ham hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, munosabatlar a'zo davlatlar tomonidan imzolangan 8 ta shartnoma asosida tartibga solinadi.

Shu o'rinda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti to'g'risida ma'lumot bersak. Hozir 180 dan ortiq davlat BIMT a'zosi hisoblanadi. Mazkur tashkilot BMT tizimida bo'lib, 1970 yildan faoliyat yuritmoqda. 1974 yilda u hukumatlararo xalqaro tashkilot nomini olgan. Ayni vaqtda BIMT butun dunyoda intellektual mulk ob'ektlarini bir xil himoya qilish, sohaga oid qonunchilik tizimini yaratish va takomillashtirishga ko'maklashish, davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, himoyaga olingan ob'ektlarni xalqaro ayirboshlashni qo'llab-quvvatlash, boshqa tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatish orqali himoya tizimini mustahkamlash, sohaga oid turli xalqaro shartnomalarning ma'muriy boshqaruvini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda.



Sohaga oid keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda O'zbekistonning BIMT a'zosi ekanligi katta samara bermoqda. 1996 yilda BIMT Bosh direktorlari Arpad Bogsh va 2000 yilda Komil Idris boshchiligida tashkilotning Xalqaro byurosi delegatsiyalari tashrif buyurdilar. Jahon davlat rahbarlari orasida birinchilardan bo'lib O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1996 yilda milliy patent tizimini yaratish va rivojlantirishdagi, ilmiy-texnologik va ixtirochilik faoliyatiga yordam ko'rsatishdagi shaxsiy hissasi hamda mamlakatimizning sanoat mulkini muhofaza qilishning xalqaro patent-huquqiy tizimida faol ishtiroki uchun BIMTning «Katta oltin medali» va diplomi bilan taqdirlangani ushbu nufuzli xalqaro tashkilot tomonidan berilgan yuksak e'tirof namunasidir.

Mamlakatimizda intellektual mulk tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 aprelidagi Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tashkil etilgani, hozirda agentlik intellektual mulk ob'yektlarining egalik huquqlarini ishonchli himoya qilib kelayotibdi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va ilmiy-texnik ishlanmalar mamlakat iqtisodiyotiga muhim hissa qo'shish bilan birgalikda turli sohalarni modernizatsiya qilishda samara berib kelmoqda.

Mamlakatimizda hukumatimiz tomonidan baholash faoliyatini tartibga solish va mulk ob'yektlarini baholash uchun ma'lum me'yorlar-hujjatlar ishlab chiqilgan:

- qimmatli qog'ozlar, ulushlar, intellektual mulk ob'yektlari va boshqa nomoddiy aktivlardan tashqari, ko'char mulkni baholovchi tashkilotlar - eng kam oylik ish haqining kamida 1500 baravari miqdoridagi ustav kapitaliga va shtatida kamida ikki nafar baholovchiga ega bo'lishi kerak<sup>4</sup>.

Intellektual mulk deganda asosan inson aql-zakovati yordamida qo'lga kiritilgan boyliklar, ratsionalizatorlik takliflari, ixtirolar, ilmiy va dasturiy mahsulotlar tushuniladi.


Intellektual mulk ob'yektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) intellektual faoliyat natijalari:

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi PQ-843 sonli "Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 18-son, 145-modda

- fan, adabiyot va san`at asarlari;
  - ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko`rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko`rsatuvlari yoki eshittirishlari;
  - elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma`lumotlar bazalari;
  - ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;
  - seleksiya yutuqlari;
  - oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);
- 2) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:
- firma nomlari;
  - tovar belgilari (xizmat ko`rsatish belgilari);
  - tovarlar chiqarilgan joy nomi;



**1-rasm. Nomoddiy aktivlarning asosiy turlari<sup>5</sup>**

3) Qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar<sup>6</sup>.

Intellektual mulk ob`yektlariga qisqacha ta`rif berib o`tamiz. Kompyuter dasturiy ta`minoti - bu korxonaning ishlab chiqarish, ma`muriy faoliyatida ishlatish

<sup>5</sup> R.X.Alimov, B.B.Berkinov va boshqalar. Ko`chmas mukni baholash. "Fan". T.:2005 yil

<sup>6</sup> O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1031-modda.

yoki ijaraga berish uchun mo'ljallangan hamda kelgusida iqtisodiy manfaatlar keltiradigan kompyuterlarda maxsus operatsiyalarni (buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va shunga o'xshashlarni) bajarishga mo'ljallangan hamda korxonani o'zida yaratilgan yoki sotib olingan dasturlardir.

Savdo markalari va tovar belgisi. Savdo markalari (masalan, Nestle, Adidas) yoki savdo namunalari "Coca-cola" kompaniyalar tomonidan mahsulot yoki xizmat uchun berilgan nomlar yoki identifikatsiyani aniqlovchi boshqa ramzlar ular egalik qilishni asosli ravishda olib borish uchun ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Ro'yxatdan o'tkazilgan savdo markalari va savdo namunalarini keyingi yillarga ham muddatni o'zaytirish yo'li bilan xizmat muddatini yangilab turish mumkin. Bu holda, nomlar, ramzlar yoki mahsulot identifikatsiyasini belgilovchi boshqa ramzlar huquqiy hisoblanadi.

"Nou-xau" - texnik tashkil qilish, xizmat ko'rsatish va tijorat xususiyatiga ega axborot bo'lib, u boshqa shaxslarga noma'lumligi sababli, haqiqiy yoki potentsial tijorat qiymatiga ega bo'ladi. Qonuniy asoslarga ko'ra, axborotlarga erishib bo'lmaydi va bu axborotga ega bo'lgan shaxs uning sirliligini ta'minlashga mas'uldir.

Sanoat mulklari boshqa ob'yektlardan farqli ravishda "nou-xau" ro'yxatiga olina olmaydigan aktivdir. "Nou-xau"ni topshirish haqidagi shartnoma asosida, "nou-xau"ning o'zi topshiriladi, uni ishlatish huquqi emas. "Nou-xau"ni topshirish shartnomasining majburiy elementlari: ob'yektning hamma xususiyatlari tavsifi, uni sir saqlash bilan bog'liq tartiblar va "nou-xau"ning uni amaliyotga qo'llashdagi hamkorligi.

Sanoat namunalarini ro'yxatdan o'tkazish - bu ishlab chiqarilgan buyumning shakli, namunasi yoki bezaklariga nisbatan berilgan patentga o'xshashdir. Sanoat namunasini ro'yxatdan o'tkazishda tashqi ko'rinish intellektual mulk ob'yektlari vositasining vazifasini bajarsa, patent xizmat ko'rsatishni intellektual mulk ob'yektlari qila oladi. Masalan, kompaniya terminalining yangi dizaynni ro'yxatdan o'tkazish bilan intellektual mulk ob'yektlari sanaladi. Sanoat namunasining patentga ega bo'lishi zarurligi uning o'ziga xosligi va sanoatda

qo'llanila olishligidir. Sanoat namunasiga patent 10 yilga beriladi va yana 5 yil muddatga o'zaytirilishi mumkin.

Patent huquqi bilan intellektual mulk ob'ektlari qo'lanadigan ob'ektlar ishlatilishining asosiy ko'rinishi - bu huquqlarning litsenziyali shartnomalar asosida amal qilinishi va ob'ektning korxonalar nizam (ustav) kapitaliga ulush sifatida qo'shilishidir. Litsenziyali shartnoma oldi-sotdi yoki ijara shartnomalaridan farq qiladi. Chunki patent egasi litsenziyali shartnoma orqali kashfiyotning o'zini emas, balki uning ishlatish huquqini berdi. Patent egasi kashfiyotni ishlatish huquqini uchinchi shaxslarning keng davrasiga topshirishi va o'zi ham kashfiyotni ishlatishi mumkin.

Intellektual mulk ob'ektlaridan biri bo'lgan mualliflik huquqidir. Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmatini, shuningdek ifodalanish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi.

Mualliflik huquqi quyidagi biron-bir ob'ektiv shaklda bo'lgan oshkor qilingan asarlarga ham, oshkor qilinmagan asarlarga ham tatbiq etiladi:

- yozma (qo'lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuv va hokazo);
- og'zaki (omma oldida so'zlash, omma oldida ijro etish va hokazo);
- ovozli yoki video yozuv (mexanik, magnitli, raqamli, optik va hokazo);
- tasvir (rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino-, tele-, video- yoki fotokadr va hokazo);
- hajmli-fazoviy (haykal, model, maket, inshoot va hokazo);
- boshqa shakllardagi.

Mualliflik huquqi g'oyalar, printsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki kontseptsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi.

Asar kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ana shu fuqaro asar muallifi deb e'tirof etiladi.

Fan, adabiyot va san'at asariga mualliflik huquqi uni yaratish fakti bo'yicha yuzaga keladi. Mualliflik huquqining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun

asarni ro'yxatdan o'tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi.

Asarning asl nusxasida yoki nusxasida muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, asar muallifi hisoblanadi.

Asar imzosiz yoki taxallus ostida chop etilgan taqdirda (muallifning taxallusi uning kim ekanligiga shubha qoldirmaydigan hollar bundan mustasno), asarni chop etgan, asarda ismi yoki nomi ko'rsatilgan nashir, agar boshqa dalillar bo'lmasa, muallifning vakili hisoblanadi hamda muallifning huquqlarini himoya qilish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash huquqiga egadir. Bu qoida bunday asar muallifi o'z shaxsini oshkor etguniga va o'zining muallif ekanligini ma'lum qilguniga qadar amalda bo'ladi.

Ikki yoki undan ortiq fuqaroning birgalikdagi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi, mazkur asar bo'linmas bir butun yoki har biri ham mustaqil mazmunga ega qismlardan iborat ekanligidan qat'i nazar, hammualliflarga birgalikda tegishli bo'ladi.

Basharti asarning muayyan qismidan uning boshqa qismlariga bog'liq bo'lmagan holda foydalanish mumkin bo'lsa, bu mustaqil mazmunga ega bo'lgan qism deb e'tirof etiladi.

Hammualliflarning har biri, basharti ularning o'rtasidagi kelishuvda o'zgacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa, asarning o'zi yaratgan, mustaqil mazmunga ega bo'lgan qismidan o'z xohishiga ko'ra foydalanishga haqlidir.

Hammualliflar o'rtasidagi munosabatlar, qoida tariqasida, kelishuv asosida belgilanadi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda asarga bo'lgan mualliflik huquqi barcha mualliflar tomonidan birgalikda amalga oshiriladi, mualliflik haqi esa ular o'rtasida teng taqsimlanadi.

Basharti hammualliflarning asari bo'linmas bir butunni tashkil etsa, asardan foydalanishni yetarli asoslar bo'lmay turib taqiqlab qo'yishga hammualliflardan hech biri haqli emas.

Intellektual mulk ob'yektlarini huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilganligi tufayli yoxud Fuqarolik kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda

tutilgan hollarda va tartibda vakolat berilgan davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi natijasida yuzaga keladi.

Oshkor etilmagan axborotga huquqiy muhofaza berish shartlari qonun bilan belgilanadi.

Intellectual faoliyat natijalarining mualliflari ana shu natijalarga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo'ladilar.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat'iy nazar, tegishli bo'ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o'tgan taqdirda uning o'zida saqlanib qoladi.

Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar yoki xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarga nisbatan huquq egalariga bu vositalar borasida mulkiy huquqlar tegishli bo'ladi.

Intellectual mulk ob'yektiga nisbatan mutlaq huquq egasi bu huquqni boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazishga, intellektual mulk ob'yektidan boshqa shaxs foydalanishiga ruxsat berishga haqli va agar qonunlarning qoidalariga zid bo'lmasa, ularni boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli.

Mutlaq huquqlarni cheklashga, shu jumladan intellektual mulk ob'yektidan boshqa shaxslar foydalanishiga imkoniyat berish yo'li bilan cheklashga, bu huquqlarni haqiqiy emas deb topishga va ularni tugatishga (bekor qilishga) qonunlarda belgilangan hollarda, doiralarda va tartibda yo'l qo'yiladi.

Mutlaq huquqlarni cheklash bunday cheklash intellektual mulk ob'yektidan normal foydalanilishiga o'rinsiz ziyon yetkazmagan va huquq egalarining qonuniy manfaatlarini asossiz kamsitmagan taqdirdagina tatbiq etiladi.

Intellectual mulk ob'yektiga nisbatan mutlaq huquqlar egasiga tegishli mulkiy huquqlar, agar ushbu qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, huquq egasi tomonidan shartnoma bo'yicha boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazilishi mumkin, shuningdek bu mutlaq huquqlar meros bo'lib va yuridik shaxs - huquq egasi qayta tashkil etilganda huquqiy vorislik tartibida o'tadi.

Mulkiy huquqlarning shartnoma bo'yicha o'tkazilishi yoxud ularning universal huquqiy vorislik tartibida o'tishi mualliflik huquqining va boshqa begonalashtirilmaydigan hamda o'zgaga o'tkazilmaydigan mutlaq huquqlarning o'tkazilishiga yoki cheklanishiga sabab bo'lmaydi. Bunday huquqlarning o'tkazilishi yoki cheklanishi to'g'risidagi shartnoma shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Shartnoma bo'yicha o'tkaziladigan mutlaq huquqlar unda aniqlab qo'yilishi lozim. Shartnomada boshqa shaxsga o'tkaziladigan huquq sifatida ko'rsatilmagan huquqlar, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, o'tkazilmagan deb hisoblanadi.

Mutlaq huquqni uning amal qilish davrida cheklangan vaqtga boshqa shaxsga berishni nazarda tutuvchi shartnomaga nisbatan litsenziya shartnomasi to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.

Litsenziya shartnomasi bo'yicha intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan taraf (litsenziar) boshqa tarafga (litsenziatga) tegishli intellektual mulk ob'yektidan foydalanishga ruxsatnoma beradi.

Litsenziya shartnomasi beriladigan huquqlarni, foydalanish chegaralari va muddatlarini aniqlashi lozim.

Litsenziya shartnomasi pullik hisoblanadi.

Litsenziya shartnomasi litsenziatga quyidagilarni berishni nazarda tutishi mumkin:

- intellektual mulk ob'yektidan, litsenziarning undan foydalanish huquqi va boshqa shaxslarga litsenziya berish huquqi saqlanib qolgan holda (oddiy nomutlaq litsenziya) foydalanish huquqini;

- intellektual mulk ob'yektidan, litsenziarning undan foydalanish huquqi saqlanib qolgan holda, biroq boshqa shaxslarga litsenziyani berish huquqsiz (mutlaq litsenziya) foydalanish huquqini.

Agar litsenziya shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, litsenziya oddiy (nomutlaq) deb hisoblanadi.

Litsenziyani oluvchi tomonidan intellektual mulk ob'jektidan foydalanish huquqini boshqa shaxsga berish to'g'risidagi shartnoma sublitsenziya shartnomasi hisoblanadi. Litsenziyani oluvchi faqat litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan hollarda sublitsenziya shartnomasi tuzishga haqli.

Qo'shimcha litsenziatning harakatlari uchun, agar litsenziya shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, litsenziar oldida litsenziat javobgar bo'ladi.

Muallif intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha kelgusida asar, ixtiro yoki boshqa intellektual faoliyat natijasini yaratish va o'zining ish beruvchisi bo'lmagan buyurtmachiga bu natijadan foydalanish uchun mutlaq huquqlar berish majburiyatini o'z zimmasiga olishi mumkin.

Muallif zimmasiga ushbu muallif kelgusida yaratadigan har qanday intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish uchun mutlaq huquqlarni birorta shaxsga berish majburiyatini yuklaydigan shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnomaning muallifning kelgusida muayyan turdagi yoxud muayyan sohadagi intellektual faoliyat natijalarini yaratishini cheklaydigan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquq bunday natija yoki xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vosita ifodalangan moddiy ob'jektga nisbatan mulk huquqidan qat'iy nazar mavjud bo'ladi.

Intellektual mulk ob'jektlariga nisbatan mutlaq huquq qonunlarda nazarda tutilgan muddat mobaynida amal qiladi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda intellektual mulk ob'jektlariga nisbatan mutlaq huquqning amal qilishi undan muayyan vaqt mobaynida foydalanilmasligi oqibatida bekor qilinishi mumkin.

Intellektual mulk ob'jektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish:



- mutlaq huquqlar qaysi moddiy ob'yektlar yordamida buzilgan bo'lsa, o'sha moddiy ob'yektlarni hamda bunday buzish natijasida yaratilgan moddiy ob'yektlarni olib qo'yish orqali;

- yo'l qo'yilgan buzish haqidagi ma'lumotni majburiy suratda e'lon qilib, unga buzilgan huquq kimga tegishliligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish orqali;

- qonunda nazarda tutilgan boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Intellectual faoliyat natijalarini va xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarni yaratish hamda ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnoma buzilganda majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi umumiy qoidalar qo'llaniladi.

## **2. INTELLEKTUAL MULK BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNDA QIYMATNI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI**

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida yurtimizda baholash xizmatini izchil rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soha qonunchilik bazasining mustahkamlangani va zarur shart-sharoitlar yaratilgani bunda muhim omil bo'layotir.

Mamlakatimizda baholash faoliyati iqtisodiyotning mustaqil sohasiga aylandi. "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonunga asoslangan baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimi shakllandi. Mazkur tizim yuridik shaxslarga litsenziyalar berish, jismoniy shaxslarga sertifikatlar taqdim etish, litsenziyaga oid talablar va shartlarga rioya etilishini nazorat qilish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish hamda iqtisodiyotni isloh etishning tarkibiy qismi bo'lgan mol-mulk baholanishini rivojlantirish ishlari izchil davom etmoqda. Davlatimiz rahbarining 2008 yil 24 aprelda qabul qilingan "Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturilamal bo'layotir.


Mazkur qarorga muvofiq yurtimizda 2009-2015 yillarda baholash faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqildi. Bu esa qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, baholash faoliyati milliy axborot tizimini shakllantirish, litsenziya berish samaradorligini oshirish, baholash natijalaridan foydalanuvchilarning bilimini mustahkamlashga ko‘maklashayotir.

Mamlakatimizda intellektual mulk tizimini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilayotgani, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 aprelidagi Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tashkil etilgani, hozirda agentlik intellektual mulk ob‘yektlarining egalik huquqlarini ishonchli himoya qilib kelmoqda.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va ilmiy-texnik ishlanmalar mamlakat iqtisodiyotiga muhim hissa qo‘shish bilan birgalikda turli sohalarni modernizatsiya qilishda samara berib kelmoqda.

2012 yilda intellektual mulk agentligiga intellektual mulk ob‘yektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun 6572 ta talabnoma topshirildi. Ulardan:


- ixtirolarga - 507;
- sanoat namunalariga - 176;
- tovar belgilariga – 5270;
- EHM dasturlari va ma’lumotlar bazalariga - 278;
- foydali modellarga - 176;
- seleksiya yutuqlariga – 8;
- mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga - 157.



## 2-rasm. Intellektual mulk agentligiga intellektual mulk ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan talabnoma<sup>7</sup> (2012 yil)

2013 yilda intellektual mulk agentligiga intellektual mulk ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun 6142 ta talabnoma topshirildi. Ulardan:

- ixtirolarga - 557;
- sanoat namunalariga - 174;
- tovar belgilariga – 5099;
- EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalariga - 118;
- foydali modellarga - 173;
- seleksiya yutuqlariga –21;



## 3-rasm. Intellektual mulk agentligiga intellektual mulk ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan talabnoma<sup>8</sup>(2013yil)


2014 yilda esa intellektual mulk agentligiga intellektual mulk ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun 6380 ta talabnoma topshirildi. Ulardan:

- ixtirolarga - 568;
- sanoat namunalariga - 193;
- tovar belgilariga – 5168;
- EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalariga - 249;

<sup>7</sup> www.patent.uz. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

<sup>8</sup> www.patent.uz. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

- foydali modellarga - 173;
- seleksiya yutuqlariga – 29;




**4-rasm. Intellektual mulk agentligiga intellektual mulk ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan talabnoma<sup>9</sup> (2014 yil)**

2015 yilda esa intellektual mulk agentligiga intellektual mulk ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun 6380 ta talabnoma topshirildi. Ulardan:

- ixtirolarga - 591;
- sanoat namunalari - 197;
- tovar belgilariga – 5231;
- EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalariga - 256;
- foydali modellarga - 184;
- seleksiya yutuqlariga – 25;

<sup>9</sup> www.patent.uz. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.



**5-rasm. Intellektual mulk agentligiga intellektual mulk ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan talabnoma<sup>10</sup> (2015 yil)**

Yuqoridagi so'ngi to'rt yilni tahlil qilganimizda intellektual mulk agentligiga intellektual mulk ob'ektlariga ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan talabnomalar quyidagi holatda bo'lgan: - 2012 yilda jami intellektual mulk ob'ektlariga ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan talabnomalar 2013 yilga nisbatan (6572/6142) 7% ko'proqni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga nisbatan esa bu ko'rsatkich (6572/6380) 3% ko'proqni tashkil etgan. 2013 yilga nisbatan 2014 yilda (3680/6142) 4% ko'proqni tashkil etgan. 2014 yilga nisbatan 2015 yilda (3680/6484) 6% ko'proqni tashkil etgan

2012 yilga nisbatan 2015 yilda ixtirolar 12%(9.9%), foydali modellar -1.7% (-1.7%), sanoat namunalari 9.7% (-1.1%), tovar belgilari -1.9% (-3.2%), EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari -10.4% (-57.6%), seleksiya yutuqlari 262,5% (162.5%)ga o'zgargan. O'zgarish dinamikasi haqida berilayotgan ma'lumot talaba tomonidan hisoblab topilgan bo'lib, 2.1-jadval, 2.2-jadvallarda to'liq aks ettirilgan.

<sup>10</sup> www.patent.uz. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

**1-jadval****Intellectual mulk agentligiga intellektual mulk ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan talabnoma o'zgarishi<sup>11</sup>**

2012 yilga nisbatan	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2014 yilda (o'zgarishi)	2015 yilda (o'zgarishi)	2014 yilda (% da o'zgarishi)	2015 yilda (% da o'zgarishi)
Ixtirolar	507	557	568	50	61	9,9	12,0
foydali modellar	176	173	173	-3	-3	-1,7	-1,7
sanoat namunalari	176	174	193	-2	17	-1,1	9,7
tovar belgilari	5270	5099	5168	-171	-102	-3,2	-1,9
EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari	278	118	249	-160	-29	-57,6	-10,4
seleksiya yutuqlari	8	21	29	13	21	162,5	262,5

Jadvaldan ko'rinib turibdiki 2013 yilga nisbatan 2014 yilda intellektual mulk ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha topshirilgan talabnomalar ijobiy holatga o'zgargan.

**2-jadval****Intellectual mulk agentligiga intellektual mulk ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan talabnoma o'zgarishi<sup>12</sup>**


2013 yilga nisbatan	2014 yil	2015 yil	2014 yilda (o'zgarishi)	2015 yilda (% da o'zgarishi)
Ixtirolar	557	568	11	2,0
foydali modellar	173	173	0	0
sanoat namunalari	174	193	19	11,1
tovar belgilari	5099	5168	69	1,4
EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari	118	249	131	111,0
seleksiya yutuqlari	21	29	8	38,1

2012 yilda intellektual mulk Davlat reyestrlarida 2188 ob'jekt ro'yxatdan o'tkazildi, shu jumladan:

<sup>11</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz) saytidan olingan ma'lumot asosida talaba tomonidan hisoblab chiqilgan.

<sup>12</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz) saytidan olingan ma'lumot asosida talaba tomonidan hisoblab chiqilgan.

- ixtirolar – 170;
- foydali modellar – 96;
- sanoat namunalari – 108;
- tovar belgilari – 1336;
- EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari – 307;
- seleksiya yutuqlari – 12;
- tovar kelib chiqqan joy nomlari – 2;
- mualliflik huquqi va turdosh huquqlar – 157.




**6-rasm. Intellektual mulk Davlat reyestrilarida ob`yekt ro`yxatdan o`tilgan<sup>13</sup> (2012 yil)**

2013 yilda intellektual mulk Davlat reyestrilarida 2386 ob`yekt ro`yxatdan o`tkazildi, shu jumladan:

- ixtirolar – 184;
- foydali modellar – 86;
- sanoat namunalari – 147;
- tovar belgilari – 1859;
- EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari – 100;
- seleksiya yutuqlari – 10.


<sup>13</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz). O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.



**7-rasm. Intellektual mulk Davlat reyestrilarida ob`yekt ro`yxatdan o`tilgan<sup>14</sup> (2013 yil)**

2014 yilda esa intellektual mulk Davlat reyestrilarida 2257 ob`yekt ro`yxatdan o`tkazildi, shu jumladan:

- ixtirolar – 179;
- foydali modellar – 115;
- sanoat namunalari – 89;
- tovar belgilari – 1695;
- EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari - 177;
- seleksiya yutuqlari – 2.



**8-rasm. Intellektual mulk Davlat reyestrilarida ob`yekt ro`yxatdan o`tilgan<sup>15</sup> (2014 yil)**


<sup>14</sup> www.patent.uz. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

<sup>15</sup> www.patent.uz. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.



2015 yilda esa intellektual mulk Davlat reyestrlarida 2386 ob`yekt ro`yxatdan o`tkazildi, shu jumladan:

- ixtirolar – 181;
- foydali modellar – 120;
- sanoat namunalari – 96;
- tovar belgilari – 1786;
- EHM dasturlari va ma`lumotlar bazalari - 179;
- seleksiya yutuqlari – 8.



**9-rasm. Intellektual mulk Davlat reyestrlarida ob`yekt ro`yxatdan o`tilgan<sup>16</sup> (2015 yil)**

Yuqorida berilgan so`ngi uch yillik ma`lumotlar asosida shuni ko`rishimiz mumkinki, jami intellektual mulk ob`yekt Davlat reyestrlarida 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 3% ga ko`p, 2013 yilga nisbatan esa 6% kam ro`yxatdan o`tkazildi. 4-jadval, 5-jadvallarda to`liq aks ettirilgan.

Quyida keltiriladigan yana bir qancha tahliliy ma`lumotlar O`zbekistonda ushbu jarayonning qaydarajadi jadal sur`atlar bilan rivojlanayotganligini ko`rsatib beradi.

<sup>16</sup> www.patent.uz. O`zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

**3-jadval****Intellectual mulk Davlat reyestrilarida ob`yekt ro`yxatdan o`tilganini o`zgarishi<sup>17</sup>**

2012 yil-ga nisbatan	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2014 yilda (o`zgarishi)	2015 yilda (o`zgarishi)	2014 yilda (%da o`zgari-shi)	2015 yilda (%da o`zgarishi)
ixtirolar	170	184	184	14	14	8,2	8,2
foydali modellar	96	86	115	-10	19	-10,4	19,8
sanoat namunalari	108	147	89	39	-19	36,1	-17,6
tovar belgilari	1336	1859	1695	523	359	39,1	26,9
EHM dastur-lari va ma`lu-motlar bazalari	307	100	177	-207	-130	-67,4	-42,3
seleksiya yutuqlari	12	10	2	-2	-10	-16,7	-83,3

Bu holat esa mamlakatimizda intellektual mulk ob`ektlariga kiritilayotgan investitsiyalar hamda aholining bilim saviyasi va ijodkorligining oshib borayotganligining yaqqol namunasi hisoblanadi.

**4-jadval****Intellectual mulk Davlat reyestrilarida ob`yekt ro`yxatdan o`tilganini o`zgarishi<sup>18</sup>**

2013 yilga nisbatan	2014 yil	2015 yil	2014 yilda (o`zgarishi)	2015 yilda (% da o`zgarishi)
ixtirolar	184	184	0	0
foydali modellar	86	115	29	33,7
sanoat namunalari	147	89	-58	-39,5
tovar belgilari	1859	1695	-164	-8,8
EHM dasturlari va ma`lumotlar bazalari	100	177	77	77
seleksiya yutuqlari	10	2	-8	-80


2012 yilda muhofaza qilinadigan intellektual mulk ob`yektlariga 186 ta huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish bo`yicha shartnomalar ro`yxatdan o`tkazildi:(8-rasm)

- ixtirolar bo`yicha – 11;
- foydali modellar bo`yicha – 4;
- sanoat namunalari bo`yicha – 5;
- tovar belgilari bo`yicha – 162;

<sup>17</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz) saytidan olingan ma`lumot asosida talaba tomonidan hisoblab chiqilgan.

<sup>18</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz) saytidan olingan ma`lumot asosida talaba tomonidan hisoblab chiqilgan.


- EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari – 4.



### 10-rasm. Intellektual mulk ob'yektlariga huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish bo'yicha shartnomalar<sup>19</sup> (2012 yil)

2013 yil muhofaza qilinadigan intellektual mulk ob'yektlariga 1956 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish bo'yicha shartnomalar ro'yxatdan o'tkazildi:(9-rasm)

- ixtirolar bo'yicha – 1001;
- foydali modellar bo'yicha - 63;
- sanoat namunalari bo'yicha – 192;
- tovar belgilari bo'yicha – 670;
- seleksiya yutuqlari – 30.




### 11-rasm. Intellektual mulk ob'yektlariga huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish bo'yicha shartnomalar<sup>20</sup> (2013 yil)

<sup>19</sup> www.patent.uz. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

<sup>20</sup> www.patent.uz. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

2014 yilda esa muhofaza qilinadigan intellektual mulk ob`yektlariga 2618 ta huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish bo`yicha shartnomalar ro`yxatdan o`tkazildi:

- ixtirolar bo`yicha – 11;
- foydali modellar bo'yicha - 4;
- sanoat namunalari bo`yicha – 5;
- tovar belgilari bo`yicha – 162;
- seleksiya yutuqlari – 4.



### 12-rasm. Intellektual mulk ob`yektlariga huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish bo`yicha shartnomalar<sup>21</sup> (2014 yil)

Yuqoridagi ma`lumotlar asosida intellektual mulk ob`yektlariga huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish bo`yicha shartnomalar 2012 yilga nisbatan 2013 yilga 10,51 barobarga, 2014 yilga 14.1 barobarga o`sgan. Shundan:(5- jadval)

#### 5- jadval

### Intellektual mulk ob`yektlariga huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish bo`yicha shartnomalar o`zgarishi<sup>22</sup>


2013 yilga nisbatan	2014 yil	2015 yil	2014 yilda (o`zgarishi)	2015 yilda (% da o`zgarishi)
ixtirolar	1001	1126	125	12,5
foydali modellar	63	103	40	63,5
sanoat namunalari	192	262	70	36,5
tovar belgilari	670	1043	373	55,7
seleksiya yutuqlari	30	84	54	180

<sup>21</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz). O`zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

<sup>22</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz) saytidan olingan ma`lumot asosida talaba tomonidan hisoblab chiqilgan.

Intellectual mulk ob`yektlariga huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish bo`yicha shartnomalar o`zgarishi 2014 yilga o`tgan yillarga nisbatan sezilarli o`zgargan. 2013 yilga intellektual mulk ob'yektlariga talabnomalar bo'yicha 5549 ta davlat ekspertizasi o'tkazildi. Shundan:

- ixtirolar – 438;
- foydali modellar – 133;
- sanoat namunalari – 180;
- tovar belgilari –4691;
- EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari – 96;
- seleksiya yutuqlari – 11;




**13-rasm. Intellektual mulk ob'yektlariga talabnomalar bo'yicha davlat ekspertizasi o'tkazildi<sup>23</sup> (2013 yil)**

2014 yilga intellektual mulk ob`yektlariga talabnomalar bo'yicha 6201 ta davlat ekspertizasi o'tkazildi. Shundan:

- ixtirolar – 439;
- foydali modellar – 140;
- sanoat namunalari – 139;
- tovar belgilari –5281;
- EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari –183;
- seleksiya yutuqlari – 19.


<sup>23</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz). O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.



**14-rasm. Intellektual mulk ob'ektlariga talabnomalar bo'yicha davlat ekspertizasi o'tkazildi<sup>24</sup> (2014 yil)**

2015 yilga intellektual mulk ob'ektlariga talabnomalar bo'yicha 6201 ta davlat ekspertizasi o'tkazildi. Shundan:

- ixtirolar – 441;
- foydali modellar – 150;
- sanoat namunalari – 155;
- tovar belgilari – 5386;
- EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari – 166;
- seleksiya yutuqlari – 23



Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin.

<sup>24</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz). O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

## 6-jadval

### Intellectual mulk ob'yektlariga talabnomalar bo'yicha davlat ekspertizasi o'tkazildi<sup>25</sup>

2013 yilga nisbatan	2014 yil	2015 yil	2014 yilda (o'zgarishi)	2015 yilda (% da o'zgarishi)
ixtirolar	438	439	1	0,2
foydali modellar	133	140	7	5,3
sanoat namunalari	180	139	-41	-22,8
tovar belgilari	4691	5281	590	12,6
seleksiya yutuqlari	11	19	8	72,7

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar natijasida, intellektual mulkka bo'lgan o'zgarish tendensiyasi samarali bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Biroq 2013 yilga biroz intellektual mulk mahsulotlarda pasayish sezilgan bo'lsa, 2014 yilda ijobiy holda o'zgargan.

### 3. INTELLEKTUAL MULK BOZORINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BAHOLASH FAOLIYATI ROLINI OSHIRISH YO'LLARI

Mamlakatimizda istiqbolning ilk yillaridan intellektual mulk himoyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston 1991-yilda Jahon intellektual mulk tashkilotiga a'zo bo'lgani buning yaqqol dalilidir.

Keyingi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqarish sohalariga innovatsiyalarni keng joriy qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarish va xalqaro savdo tizimida munosib o'rinni egallash yo'lida ulkan ishlar qilinmoqda. Prezidentimizning 2006 yil 7 avgustdagi «Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2008 yil 15 iyuldagi «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlarida yaqin yillarga mo'ljallangan yo'nalishlar belgilab berildi. Respublika Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligini

<sup>25</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz) saytidan olingan ma'lumot asosida talaba tomonidan hisoblab chiqilgan.

tashkil etish haqida»gi qarori yuqorida ko'rsatilgan muhim masalalarni hal etish, intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosati yuritish yo'llarini ko'rsatib berdi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan mamlakatimizda ma'naviy mulk rivoji va muhofazasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davrda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza etishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. Mualliflar huquqlari va ular tomonidan yaratilgan asarlar muhofazasi 1996-yilda qabul qilingan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun bilan yanada mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi hududida 2005-yil 19-apreldan e'tiboran Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi qoidalari amal qilayotgani bu borada yana bir muhim qadam bo'ldi.

Ma'lumki, Bern konvensiyasi fan, adabiyot va san'at asarlariga bo'lgan mualliflik huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan asosiy xalqaro shartnomalardan biridir. Konvensiyada mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadigan ob'yektlar, asarlar belgilangan. Ularni yaratish va ulardan foydalanish natijasida kelib chiqadigan munosabatlar mazkur xalqaro huquqiy hujjat qoidalari bilan tartibga solinadi. Konvensiya a'zosi bo'lgan har bir davlat majburiyatlar, huquqiy imkoniyat yoki imtiyozlar bo'yicha tengdir.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri ishlab chiqildi va 2006-yil 20-iyulda qabul qilindi. Mazkur qonunda huquqning tegishli tarmog'ida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar qamrab olingan, ularni amalda joriy etish mexanizmlari belgilangan. Qonunda ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari hisobga olingan, xususan, telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan foydalanish usullari ko'zda tutilgan moddalar mavjuddir. Bugungi kunda ushbu qonun Bern konvensiyasi qoidalarini hayotga tatbiq etish borasida muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bern konvensiyasiga qo'shilish mamlakatimiz dunyo bilan tengma-teng qadam tashlayotganining yana bir yorqin ifodasidir. Bugungi kunda biz nainki xorijning ma'naviy mulkidan foydalanish, ayni paytda, o'zimizning adabiy-badiiy



asarlarimizni ham dunyo bo‘ylab eksport qilish huquqiga egamiz. O‘z navbatida, bu mualliflar va ularga tenglashtirilgan boshqa huquq egalari uchun katta imkoniyatlardir. Endilikda mualliflarimiz asarlaridan Bern konvensiyasiga a‘zo davlatlar hududida faqat tegishli ruxsat bilan foydalaniladi.

Davlatimiz rahbarining 2011-yil 24-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda intellektual mulk ob‘yektlariga bo‘lgan huquqni ishonchli muhofaza qilishning xalqaro andozalarga mos yangi tizimi yaratilishida muhim omil bo‘lmoqda. Mazkur hujjatga muvofiq, O‘zbekiston Butunjahon intellektual mulk tashkiloti hukumatlararo tashkilot hisoblanib, uning bosh qarorgohi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan.

1883-1886 yillar davomida Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij konvensiyasi va Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Bern konvensiyasi qabul qilingandan so‘ng Butunjahon intellektual mulk tashkilotiga asos solindi.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti 1974 yildan buyon Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi ixtisoslashgan muassasa hisoblanadi. Ushbu tashkilotga bugungi kunda dunyoning 79 mamlakati a‘zodir.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti a‘zo-davlatlarning milliy patent tizimini rivojlantirishda metodik va texnik yordam ko‘rsatib, O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi mutaxassislarining bu boradagi salohiyatini oshirishda ko‘maklashib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikning asosiy maqsadlaridan biri bu - sanoat mulkini muhofaza qilish sohasida milliy qonunchilik hamda mazkur yo‘nalishdagi normativ-huquqiy normalarni mukammallashtirishdan iboratdir.

Mamlakatimizda intellektual mulkni himoya qilish sohasida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda turli xalqaro seminarlar va konferentsiyalar o‘tkazib kelinmoqda. Qolaversa, respublikamiz vakillari

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti doirasida o'tkaziladigan turli tadbirlarda ishtirok etib, o'z kasbiy mahoratlarini oshirib kelmoqdalar.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi vakillari Butunjahon intellektual mulk tashkilotining quyidagi tadbirlarida faol ishtirok etadilar:

- jahon intellektual mulk tashkilotining tovar belgilari, sanoat namunalari va geografik ko'rsatkichlar doimiy qo'mitasi yig'ilishi;

- tashkilotning intellektual mulk, genetik resurslar, an'anaviy bilimlar va folklor bo'yicha Davlatlararo qo'mitasining sessiyalari va hokazo.

2015 yil 12-13 may kunlari O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) bilan hamkorlikda tashkil etgan "Tovar belgilarining huquqiy muhofazasi masalalari va belgilarni Madrid tizimi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish" mavzuida xalqaro seminar bo'lib o'tdi.

Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish tizimi ikkita shartnoma asosida boshqariladi: Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun Madrid bitimiga doir Bitim va Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun Madrid bitimiga doir Bitim Bayonnomasi.

Tizim ikkita maqsadga ega. Birinchidan, u tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari uchun huquqiy muhofaza olishni osonlashtiradi. Ikkinchidan, xalqaro ro'yxatdan o'tkazish bir nechta milliy ro'yxatdan o'tkazishga teng bo'lganligi sababli bunday muhofazani keyinchalik boshqarish ham osonlashadi. Bitta ro'yxatdan o'tkazilgan belgi muddati uzaytiriladi, belgi egasi, uning nomi va manzili o'zgarishi, tovar va xizmatlarni cheklash kabi o'zgartirishlar to'g'risidagi yozuvlarni Xalqaro reestrغا kiritish bitta oson prosedurali harakat orqali amalga oshirilishi mumkin. Xalqaro ro'yxatdan o'tkazish tizimining ustunligi shundaki, u orqali tovar belgilarini talabnoma beruvchi tomonidan tanlangan bitimga a'zo-davlatlarda bir vaqtning o'zida ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati mavjudligidadir.

Xorijda tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga huquqiy muhofaza olish tovarlarni eksport qilish, lisenziyalar sotishni huquqiy ta'minlash hamda eksport qilinayotgan tovarlarni samarali reklama qilish uchun zarurdir.

2011 yildan 2015 yil 1- chorak yakunigacha Agentlikka Madrid Bayonnomasi bo'yicha 11 629 talabnoma kelib tushgan, shundan 10677 talabnoma bo'yicha ekspertiza o'tkazilgan va 9739 talabnoma O'zbekiston respublikasi hududida huquqiy muhofazaga ega bo'ldi <sup>26</sup>.

Belgilarni Madrid tizimi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish va Butunjahon intellektual mulk tashkiloti xizmatlari to'g'risidagi ko'nikmalar va bilimlarni oshirish nafaqat Agentlik ekspertlari uchun, balki tadbirkorlar, tadqiqotchilar, yuristlar, patent vakillari hamda tovar belgilarini xorijda muhofazalash masalalari bilan shug'ullanuvchi barcha manfaatdor shaxslar uchun dolzarbdir.

AQSh hukumati intellektual mulk huquqini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan 2015 yil may oyida yillik hisobot e'lon qildi. Undan intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha nazorat ro'yxati o'rin oldi. Ro'yxatga AQShning 24 savdo hamkori kiritilgan. Ular orasida MDH davlatlaridan Belarus, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston bor.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari yuqori darajada rivojlanib bormoqda, deb hisoblash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari tasdiqlagan "Respublikamiz hududiga kontrafakt tovarlarning noqonuniy kirib kelishi va aylanmasining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar"ni bajarish maqsadida va "Respublikamiz hududida intellektual mulk ob'yektlaridan noqonuniy foydalanishning oldini olish bo'yicha hududiy ishchi guruhlar va vakolatli davlat organlari bilan birgalikda monitoring o'tkazish grafigi"ga muvofiq Agentlik xodimlari har yili respublikamizning barcha hududlarida monitoringni o'tkazadilar.

2011-2014 yillarda Toshkent shahri va viloyatlarda o'tkazilgan monitoring natijalari bo'yicha 346 592 (kontrafakt) audiovizual mahsulotlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlar bo'yicha 155 ta va kontrafakt matbaa mahsulotlar bo'yicha 3 ta mualliflik huquqi bo'yicha ekspert xulosalari berildi.

---

<sup>26</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz). O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

Berilgan xulosalarga asosan kontrafakt mahsulotlarning umumiy qiymati 3943,9 mln. so'mni tashkil etdi.<sup>27</sup>

Keng jamoatchilikni muhofaza qilinayotgan intellektual mulk ob'yektlari to'g'risida xabardor qilish maqsadida "Rasmiy axborotnoma" rasmiy byulleteni, faoliyat natijalari to'g'risidagi yillik hisobotlar, axborot, uslubiy va ma'lumot materiallari, "Intellekt-info" ilmiy-amaliy jurnali nashr qilinmoqda. "O'zbekiston Respublikasining istiqbolli ixtirolari va foydali modellari" chop etilmoqda. Istiqbollilar qatoriga kiritilgan ixtirolar va foydali modellar O'zbekistonda fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos keladi. Qiziqarli ixtirolar to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr qilish ulardan faol foydalanishga, sanoat mulki ob'yektlari bozorining rivojlanishiga, innovasion sohaga investisiyalarni jalb qilishga va mamlakatimiz mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashadi.

Xalqaro hamkorlik sohasida Agentlik faoliyati xalqaro tashkilotlar va chet el patent idoralari bilan o'zaro aloqalarni yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari bilan intellektual mulkni himoyalash va huquqiy muhofazalash sohasidagi hamkorlik va intellektual mulkni himoyalash va huquqiy muhofazalash masalalalari bo'yicha Davlatlararo kengashni tuzish to'g'risida kelishuvlar hamda ma'lumotlarni davlatlararo almashishni tashkillashtirish va mualliflik va turdosh huquqlar milliy ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi kelishuvlar tasdiqlangan.

Respublikamiz hududlarida seminarlar tashkillashtirilmoqda, ularda joylardagi davlat boshqaruv va davlat hokimiyati organlari rahbarlari va mutaxassislari, ilmiy tashkilotlar va korxonalar mutaxassislari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari vakillari, yangi texnika va texnologiyalar yaratuvchilari ishtirok qilishmoqda. Turli o'quv muassasalarida o'quv seminarlari, leksiylar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilmoqda, ularda professor-o'qituvchilar, talabalar va o'quvchilar ishtirok etishmoqda.

---

<sup>27</sup> [www.patent.uz](http://www.patent.uz). O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sayti.

Agentlik huzurida "Intellectual mulk sohasidagi kadrlarni qayta o'qitish va mutaxassislar malakasini oshirish bo'yicha o'quv markazi" tashkil qilingan, o'quv markazining asosiy vazifasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari mutaxassislari, biznes va tadbirkorlik vakillarini intellektual mulk himoyasi va huquqiy muhofazasi sohasida o'qitish va malakasini oshirishdir.

O'quv markazi o'z faoliyatini boshlagandan buyon "Intellectual mulk asoslari" o'quv kurslarida respublikamizning turli korxonalar va tashkilotlaridan 200 dan ortiq mutaxassislar o'z malakalarini oshirishdi.

2011 yilda "Intellect Expert" davlat unitar korxonasi ham o'z faoliyatini boshladi, uning asosiy vazifalari bu intellektual mulk ob'yektlarini huquqiy muhofaza qilish sohasida xizmatlarni ko'rsatish, Agentlik faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikasiya vositalarini joriy qilish, Agentlik nashrlarini chop etishdir.

## XULOSA

Mamlakatimizda ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, intellektual mulk rivoji va muhofazasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda istiqloq yillarida ajdodlardan meros bebaho madaniy yodgorliklar qayta tiklanib, xalqimizga etkazilishi bilan bir qatorda zamondosh ijodkorlar, ixtirochilar erkin faoliyat yuritishi uchun barcha zarur shart-sharoit yaratildi.

O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida ushbu yo'nalishda xalqaro integratsiyani ham izchil yo'lga qo'ygani mualliflar huquqlarini himoya qilishda muhim omil bo'layotir. Mamlakatimizning 1991 yilda Jahon intellektual mulk tashkilotiga a'zo bo'lgani buning dalilidir. O'zbekistonda 2005 yil 19 apreldan Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi qoidalari amal qilayotgani bu borada yana bir muhim qadam bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining 2011 yil 24 mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Chunki shu asosda intellektual mulk ob'yektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasida yagona davlat siyosati yuritilishi yo'lga qo'yildi.

Mazkur agentlik vakolatlarining kengaytirilgani, jumladan, unga ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari hamda boshqa intellektual mulk ob'yektlarini huquqiy muhofaza qilish, intellektual mulk ob'yektlari egalarining huquqlarini himoya qilish vazifasi yuklangani sohadagi ishlar samaradorligini oshirishga zamin yaratdi.

Ayni paytda tizimda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish ko'lami kengaymoqda. Chunki bu intellektual mulk ob'yektlarini ro'yxatga olishni avtomatlashtirish va ekspertiza o'tkazish jarayonlarini soddalashtirishga yordam beradi. Bu borada agentlik huzurida faoliyat yuritayotgan "Intellekt Expert" davlat unitar korxonasi izchil ishlarni amalga oshirayotir. 2013 yilda agentlik veb-sayti orqali bazaviy interfaol xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yilgani shuni tasdiqlaydi.

Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilishga oid qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini qat'iy nazorat qilish, mamlakatimiz hududiga qalbaki tovarlarning noqonuniy olib kirilishi va aylanishiga chek qo'yish bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilayotir. Zero, intellektual mulk har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim qismidir. Shu bois intellektual mulk himoyasini rivojlantirish, kontrafaktsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish dolzarb vazifalardandir.

Qonunchilikka muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslar asardan faqat huquq egasi bilan tuzilgan shartnomaga binoan yoki tegishli ruxsatnoma mavjud bo'lgan taqdirda foydalanishi mumkin. Bunday mahsulot xoriждан olib kelinsa, buni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar bo'lishi lozim.

Shunga qaramay, joylarda asarlarni mamlakatimiz hududiga noqonuniy yo'llar bilan olib kirish, nusxa ko'chirib sotish holatlari hamon uchrab turibdi. Ayrim hollarda e'lon qilingan asarlardan muallif ruxsatisiz foydalanish, hatto ularni "qayta ishlash" yoki materiallarning muallifini ko'rsatmasdan e'lon qilish holatlari ham yo'q emas. Kimningdir musiqasini "xalq kuyi" deb qo'shiq qilib aytayotgan xonandalar uchrab turibdi.

Qonun talablari buzilishi holatlariga qarshi kurashish borasida agentlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti, Davlat soliq va bojxona qo'mitalari, Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatimizda mualliflik huquqi va intellektual mulkni muhofazalash sohasida erishilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan dolzarb vazifalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining intellektual mulk ob'yektlarini huquqiy muhofaza qilishdagi ishtirokini kuchaytirish, ixtirochilik salohiyatini, ayniqsa, yoshlarning bu boradagi faolligini oshirishga qaratilgan imtiyozlarni, tayyor mahsulot ishlab chiqarish borasidagi ilmiy-amaliy ishlar ko'lamini yanada kengaytirish yuzasidan ishlar

amalgaga oshirilmoqda. Buning uchun eng avvalo nazariy bilim berayotgan va olayotgan ustoz va talabalarning ta'lim jarayonini bevosita amaliyot bilan bog'lash zarur. Chunki nazariy va amaliy bilim bir vaqtning o'zida ko'rilsa talabalar ongida yangi g'oyalar shakllanishi va uni intellektual mulk aylantirish jarayon tezlashadi.

Shuningdek, yurtimizning barcha tumanlarida intellektual mulklar uchun maxsus fond tashkillashtirish va undan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish va uning evaziga yoshlar tomonidan qilinayotgan ishlarni har oyda ommaviy axborot vositalarda e'lon qilib borish va yoshlarni qiziqishini uyg'otish orqali rivojlantirish mumkin deb o'ylayman.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasidagi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi farmonlari va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 30.04.1998 y. 598-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O'zR 30.04.1998 y. 599-I-son Qarori bilan amalga kiritilgan.
3. O'zbekiston Respublikasining Uy-Joy Kodeksi. 1998 yil 24 dekabrda 713-I-son Qonun bilan tasdiqlangan. 1998 yil 24 dekabrda 714-I-son Qaror bilan amalga kiritilgan. 1999 yil 1 apreldan amalga kiritilgan.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ipoteka to'g'risida» gi Qonun. 2006 yil 4 oktyabr O'RQ-58-son.
6. «Garov to'g'risida» gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 1-son, 17-modda; 1994 y., 11-12-son, 285-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 6-son, 118-modda; 1995 y., 9-son, 193-modda; 1997 y., 4-5-son, 126-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4720-sonli farmoni. // Xalq so'zi. - Toshkent, 25 aprel 2015 yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli “Kapital kurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli Qarori 4-ilovasi “O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom”.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli Qarori 3-ilovasi "Ob'ektlarni foydalanishga tayyor xolda kurishga doir namunaviy pudrat Shartnomasi".

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida "Qishloq qurilish invest" injiniring kompaniyasi ishtirokida uy-joylar qurishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori 2009 y 26 oktyabr. №280 son.

## **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari**

12. Karimov I.A. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" – T.: "O'zbekiston", 2014 yil 48 b.

13. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / – T.: "O'zbekiston", 2009. - 56 b.

14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmach kuch. Toshkent. Ma'naviyat. 2008 yil.

15. Karimov I.A. "Bizning bosh maqsadimiz –jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir". –T.: O'zbekiston, 2005. – 136 b.

16. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent. 2010 yil. 48 b.

17. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. Toshkent –"O'zbekiston"- 2015 yil. 37 b.

## **III. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar**

18. Shevchuk D.A. Оценка недвижимости и управление собственностью - Ростов н/Д: Феникс, 2007.-155,(2)с.;

19. Balabanov I. T. Operatsii s nedvijimostyu v Rossii. – M.: Finansi i statistika, 1996. 10 bet.

20. Alimov R.X., Berkinov B.B., Kravchenko A.N., Xodiev B.Yu. Ko'chmas mulkni baholash.T.: "Fan".2005y.

21. Yodgorov V.U. Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti, 1-qism: O'quv qo'llanma.- T.: TAQI, 2007.-190 b.

22. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya. Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti, 2-qism: O'quv qo'llanma.- T.: TAQI, 2008.- 218 b.

23. Maxmudov E.X. Kapital qurilish iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2009.

#### **IV. Internet saytlari**

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali

[www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti

[www.gkas.uz](http://www.gkas.uz) (O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi rasmiy sayti)

[www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)

[www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)

[www.stroyinfo.uz](http://www.stroyinfo.uz) (Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish Markazi sayti)